

электронное периодическое издание

ЭКОНОМИКА

и

социум

ISSN 2225-1545

№5(84)-2021



ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ

«Экономика и социум»

<http://www.iupr.ru>

УДК 004.02:004.5:004.9

коммуникации

ББК 73+65.9+60.5

ISSN 2225-1545

Свидетельство о регистрации
средства массовой

Эл № ФС77-45777
от 07 июля 2011 г.

Редакционный совет:

*Зарайский А.А., доктор филологических наук, профессор,
Калимбетов Х.К., доктор экономических наук, доцент,
Смирнова Т.В., доктор социологических наук, профессор,
Федорова Ю.В., доктор экономических наук, профессор,
Постюшков А.В., доктор экономических наук, профессор,
Тягунова Л.А., кандидат философских наук, доцент*

Отв. ред. А.А. Зарайский

Выпуск №5(84) часть 1 (май, 2021). Сайт: <http://www.iupr.ru>

© Институт управления и социально-экономического развития, 2021

*Murodov G.', filologiya fanlari doktori
professor
BuxDu
Shamsiddinova S.
2-bosqich magistranti
Adabiyotshunoslik (o`zbek) yo`nalishi
Buxoro davlat universiteti
O`zbekiston*

EPOPEYALARDA DO`STLIK TALQINI ("GILGAMISH", "ALPOMISH" VA "ILIADA" MISOLIDA)

Annotatsiya: Jahan va o`zbek adabiyotshunoslida do`stlik keng tadqiq etilgan motiv hisoblanadi. Maqolada "Gilgamish", "Alpomish" va "Iliada" eposlaridagi do`stlik obrazlaridan ayrimlari tadqiq etilgan. Ular o`rtasidagi o`xshashliklar solishtirilgan.

Kalit so`zlar: do`stlik, epopeya, psixologiya, islom, bahodirlilik, shaxsiy chiziq, og`a-ini, birodarlik.

*Murodov G., Doctor of Philological Sciences
professor
BuxDu
Shamsiddinova S.
Level 2 Master
Literary criticism (Uzbek)
Bukhara State University
Uzbekistan*

INTERPRETATION OF FRIENDSHIP IN EPICS (ON THE EXAMPLE OF "GILGAMISH", "ALPOMISH" AND "ILIADA")

Annotation: Friendship in World and Uzbek literature is based on a well-developed motive. The article features some of the images of friendship in the Gilgamesh, Alpomish, and Iliad epics. Comparing the similarities on them.

Keywords: friendship, epic, psychology, Islam, heroism, personal lines, brotherhood.

Do`stlik tushunchasi psixologiya, pedagogika fanlari qatori adabiyotning ham diqqat markazidagi hodisadir. Bu fazilat ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha bo`lib, birodarlik qon-qarindoshlik, o`rtoqlik munosabatlariga yaqin

tursa-da, o`zining alohidaligi, tanlash xususiyati, his-tuyg`u bilan farq qiladi.²⁰ Inson paydo bo`libdiki, uning fitratida barcha ezgu fazilatlar qatorida do`stlik tuyg`usi ham birga tug`iladi. Do`shtlar hayot davomida orttirilsa ham, uning ildizi jon bilan birga ruhimizga singdirilgan. Olamdagi ko`pgina o`zgarishlar, burilishlar ilohiy tuyg`u – do`shtlik sabab sodir bo`ladi. Hayotda ham do`shtsiz yashashning imkonini bo`limgani kabi, asarlarda ham bu motivning o`rni muhabbatdan ko`ra kuchliroq, faolroq. Buning isbotini yarim afsonaviy va yarim tarixiy asarlar – eposlar vositasida ko`rib chiqamiz.

Eposlardagi tadqiqotga tortilgan do`shtlik obrazlari qondosh bo`limgan, mutlaqo bir-biriga begona qahramonlardir. Notanishlik jihatni bilan yuqorida aytganimiz do`shtlikning ta`rifiga mos keladi.

Boshdan-oyoq bahodirlar haqida so`ylovchi “Bilgamish” dostoni do`shtlik tarannumining oliv namunasidir. Birinchi qo`shtiqa abadiy birodarlikning paydo bo`lishi sabablari bayon etilgan bo`lsa, yetti qo`shtiq davomida ikki do`shtning bir-biriga muhabbat, qahramonliklari xususida so`z boradi.

“Kechalar-u kunduzlar beboshlik haddan oshdi,

Shikoyatlarni tez-tez eshitardi Xudolar.”²¹

Odamlar ona ma'buda, taqdir ilohasi Aruruga yolvorib o`zini yarim ma'bud hisoblaydigan Gilgamishga teng keladigan yaratiqni bunyod etishini so`rashdi. Aslida Uruk xalqi tog` echkisidek bebosh bahodirning tiyiqsizligidan biroz hordiq olmoqchi edilar. Aruru esa Gilgamishga shaklan raqib, mohiyatan do`sht yaratdi. Enkiduga qadar Gilgamishning do`shtlari ko`p bo`lsa-da, ular chapani bahodirdan behad qo`rqar edilar. Faqat chinakam do`shtlikgina insoniyat ichida buyuk sanalgan Gilgamishni jilovlashi mumkin edi.

Sahrodagi vahshiy, ibridoiy odam Enkidu garchi maxluq bo`lsa-da, yengiltak ayol Shamxatning so`zlarini eshitar ekan, qalbida hali uchratmagan kishisiga nisbatan iliq tuyg`u – do`shtlikni his qiladi:

Garchi qiz so`zi yoqar, sirib olar po`shti,

Uning donishmand qalbi izlar edi do`shti.

Shu tariqa eposda insoniyatning vahshiy hayotdan madaniy hayotga o`tishi muhabbat va do`shtlik tufayli amalga oshgani ko`rsatiladi.

Turkiy xalqlar og`zaki ijodida muhim o`rin tutadigan shoh asarlardan biri “Alpomish” dostonida ham do`shtlik motivi qahramonning hayotini boshqa o`zanga buradi. Taqdirning kutilmagan o`zgarishlariga sababchi bo`ladi. Qorajon va Alpomish – ikki begona qutb, ikki xil olam odamlari. Lekin ularni birlashtiruvchi umumiylilik bor. Alloh bu ikki alpga bir xil sof ko`ngil ato etgan. Hayotda ham o`xshashlar o`xshashini magnit singari tortgani kabi ularning qalbi do`shtligiga kalit bo`ladi. Qorajon tushida Alpomish bilan do`sht tutingach, islomni qabul qiladi. Alpomishga Qorajonning do`sht qilib yuborilishi bejizga emas, unda Hakimbekka xos oriyat, odamgarchilik, imon bor edi.

²⁰ uz.m.wikipedia

²¹ Эпос о Гильгамеше. Перевод с аккадского И.М. Дьяконова. – Санкт-Петербург: Наука, 2006. (asardan parchalar maqola muallifining rus tilidan tarjimasi) –5 6

Alpomishni mehmonga olib kelgan Qorajon bu holdan g`azab otiga mingan onasi Surxayil kampirga qarata deydi:

To o`lguncha yaratganga rost bo`ldim,
O`z fe`limdan cho`p-u xasdan past bo`ldim,
Xudoni o`rtaga solib do`s^t bo`ldim.²²

Barcha dinlarda bo`lgani kabi islomda ham do`s^tlikka ilohiy fazilat sifatida qaraladi. Qorajonning Allohnⁱ o`rtaga qo`yib do`s^t bo`lishi bu tuyg`uning boqiylikka daxldor ekanligi, odamlar o`rtasidagi do`s^tlikka vafo qilish, Allohg^a vafo qilish bilan barobarligini anglash mumkin. Usmoniyalar sultonⁱ Abdulhamidxon II ning ustozⁱ G`olib ota muridlariga ma`naviy dars o`tar ekan, do`s^tlik tushunchasiga quyidagicha ta`rif beradi:

“Do`s^t kim?! Do`s^t shunday kishidirkⁱ, o`ldirilish ehtimoli bo`lgan kechada ulug` payg`ambarimizning (Muhammad solallohu alayhi vasallam) joyida yotadi. Uni “Valiylar shohi” derlar. U hazrati Alidir. Do`s^t shunday kishidirkⁱ, g`ordagi do`s^tdir. Bu do`s^t oxirigi teshikni tovoni bilan berkitib, tovon kabi ko`nglini uzatgan Abu Bakrdir. G`orda ulug` payg`ambarimiz (Muhammad solallohu alayhi vasallam) bilan birga bo`lgan, quchog`ida muborak bir omonatni saqlagandir. U do`s^t barcha teshiklarni ko`ylagidan yirtib berkitadi. Oxirgi teshikni tovoni bilan berkitadi. U teshikdan Abu Bakrni ilon chaqib oladi. aslida teshikni tovoni bilan emas, ko`ngli bilan yopgandir. Shu sababli kim bilan do`s^t bo`lishga e`tiborli bo`lamiz. Allohg^a do`s^t bo`lmagan, do`s^timiz bo`la oladimi?²³

Homerning “Iliada” dostonida o`n oltinchi qo`s^tilohiy va pok do`s^tlikni tarannum etgan. “Patroknoma” deb nomlangan qo`s^tilohiy afsonaviy va yengilmas Axilles va uning jondosh do`s^tti Patroknⁱning ko`z yosh to`kib qilgan suhbatidan boshlanadi. Troyani yengish uchun izn so`rab turgan Patroknⁱning nutqida, Axillesning do`s^t stini jangga jo`natayotgan paytidagi holatida do`s^tlarga xos cheksiz mehr, bahodirona xayrixohlik yaqqol bilinadi:

“Zafar baxsh et unga, o, sohibkaram!
Jur`at ufur yuragiga, toki har mard yigitimizning
Bellashuvga qodirligin ko`rib qo`ysin Hektor janggohda,
Yo u hamon qudratidan mag`rurlanib quturmoqchimi?!

Mard Patrokl yong`inni va falokatni lashkar boshidan
Daf aylagach, uning jangdan do`s^tlari va silohlari-la
Shikast ko`rmay qaytmog`iga imkon bergil istiqbolimga.”²⁴

Arazchi Axillesning Sovut-qalqonini kiyib jangga otlangan Patroknⁱ muqarrar o`lim kutayotgan edi. Lekin Axil do`s^t stini yo`qotishini bilmas edi. Chunki bandalar orasida sherqalb Patroknⁱ yengadigan alp yo`q edi. Patroknⁱning jangga kirishi taqdirning rejasi edi. Faqatgina shum xabar Axillesni hayotdagi

²² Alpomish: xalq og`zaki ijodi – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. -153 b.

²³ Azon.uz

²⁴ Хомер. “Илиада”. – Тошкент: Фаурў Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988, 268-бет.

eng nodir boyligi – do`stining xuni uchun ginalarni unuttirib muhorabaga kirgiza olardi.

Do`stini yo`qotgan Axillesning iztiroblari, nafrati, qayg`usi eposning 17-, 18-, 19-, 20-, 21-qismlarida qo`sinqidan qo`sinqqa rivojlanib, oxiri 22-qo`sinqda Hektorning Axilles tomonidan o`ldirilishi bilan yakunlanadi. “Patroklni dafn etish. O`yinlar” deb nomlangan 23-qo`sinqda Aid qa`riga yo`l olgan do`st taqdiri uchun butun jangchi axeylar ko`z yosh to`kadilar. Yunonlar mard jangchisidan ayrilgani uchun emas, (chunki bundan ko`proq yo`qotishlarda ham bu qadar a`za tutilmagan edi), Axillesning nodir javohiri – do`stini yo`qotgani uchun iztirobda edilar.

Do`stlik e`tibor va rivojlanish talab qiladigan tushuncha. Hayotda bo`lgani kabi dostonda ham do`stlik maqsadida cho`zilgan qo`l hamisha ham ikkinchi tomondan to`g`ri anglanavermaydi. Zamonaviy dunyomiz psixologlarining ta`kidlashicha, do`stlikning qadrini oshirish uchun ham bir qator omillarga e`tibor qilishimiz lozim. Xususan, toki do`stimiz o`zi muhtoj bo`lma guncha, bizdan yordam so`ramaguncha uning g`amini yemasligimiz, uning shaxsiy chizig`ini bosib o`tmasligimiz zarur. Ana shunda tushunmovchiliklarga o`rin qolmaydi. “Alpomish” eposida Boybo`ri jon-jigari Boysariga do`stlik qilaman, yaxshilik ilinaman, deb o`rtada o`nglash mushkul bo`lgan vaziyatning paydo bo`lishiga sababchi bo`ladi:

“Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o`qib o`tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo`ribiy shunda o`g`li Alpomishdan: – Kishi nimadan baxil bo`ladi, nimadan saxiy bo`ladi? – deb so`radi.”

Ota-bolaning suhbati shu taxlit davom etadi. Shunda Alpomish tushuntirishlari oxirida kishining moli nisobga ya`ni zakotga yetsa, zakot bersa bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan, deydi. Buni eshitgan Boybo`ri chuqur o`yga cho`mib, mening davlatimda yolg`iz inim Boysari baxilga aylanib qolmasin, u menga zakot to`lashi kerak, deb o`yaydi.

Ko`kqamish ko`lida o`n ming uyli qo`ng`irot eliga Elboylik qilib, mollarini semirtirib yotgan Boysari og`asi yuborgan o`n to`rt mahramning gapini ko`ngliga og`ir oladi. Boybo`rining bu qiling`ini o`g`illi bo`lganiga yo`yib, mahramlarning ayrimini qorniga qoziq qoqib o`ldirtirdi. Qolganining quloq-burnini kesib, o`zlariga yegizib, otiga chappa mingizib, Qo`ng`irot tomonga qarab jo`natdi.

Shu o`rinda aytish joizki, ko`pchilik fazilatlar qatori do`stlikni ham insonlar o`rtasida abadiy saqlash uchun aql-tafakkurning o`rni beqiyos. Ilmsizlik – birodarlikning parokanda bo`lishiga, johillikka olib keladi. Aql va qalb bilan yondashilmasa, har qanday tuyg`ularga darz ketishi mumkinligi “Alpomish” dostonida o`z isbotini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Alpomish, Gilgamish va Axillesning ichki kechinmalari, bahodirliliklari va hatto shakl-shamoyillari ham deyarli bir xil. Enkidu, Qorajon va Patroklning do`stga sadoqati, birodari uchun mashaqqatdan tap tortmasligi, odamoxunligi o`zaro mushtarak jihatlaridir. Tadqiqotga tortilgan

uch eposda ham do`stlik motivi bir-biriga juda o`xshash. Dostonlarda do`stlik oddiy insonlar hayotidan farqlanib, elparvarlik, gumanizm,adolat, qahramonlik va mehr-muhabbatning asosi, ildizi, sababchisi sifatida yuzaga chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. uz.m.wikipedia
2. Эпос о Гильгамеше. Перевод с аккадского И.М. Дьяконова. – Санкт-Петербург: НАУКА, 2006. – 5 бет.
3. Alpomish: xalq og`zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. -153-bet.
4. Azon.uz.
5. Хомер. “Илиада”.– Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988, 268-бет.

Mirzayeva G., Majitova F., Shuhratxo'jayeva N., Kubayev J., TURIZM VA MEHMONXONA SOHASIDAGI TALABALARING USHBU SOHADA ISHLASH TO'G'RISIDAGI QARASHLARI.....	298
Mukhtarov J.M., PREVENTION OF TRAUMATIC DISEASES	309
Muratova N.V., THE ROLE OF GRAMMAR SKILL IN COMMUNICATIVE-ORIENTED TEACHING OF ENGLISH LANGUAGE	313
Murodov G', Shamsiddinova S., EPOPEYALARDA DO`STLIK TALQINI (“GILGAMISH”, “ALPOMISH” VA “ILIADA” MISOLIDA)	318
Murodov Sh.D., Azimov A.Kh., METHODOLOGY AND ITS THEORETICAL BASES.....	323
Mustanov N., Mirobidova D., Azamatova S., Toshpo'latova M., O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI VA ICHKI TURIZMNING RIVOJLANISH TAMOYILLARI HAMDA TURIZMNING PANDEMIYA BILAN BOG'LIQLIGI	329
Musurmonov A.A., Absalomova K.A., Temirova M.T., Raxmatov A.H., LIMONO'TNING TIBBIY VA IQTISODIY FOYDALARI	341
Nabiiev Sh.N., MECHANISMS AND PECULIARITIES OF TAX POLICY IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN	345
Nabiyeva G., Nodirova M., Tohirova D., Zayniddinova O., TURISTIK YO'NALISHNI TARG'IB QILISH UCHUN IJTIMOIY TARMOQLARGA ASOSLANGAN XATTI-HARAKATLAR	348
Nasriddinova N.A., Otaxonova M.F., Quziboyeva O.O., O'QISH - SAVOD CHIQARISHNING ENG MUHUM OMILI.....	358
Normirzayev A.R., Azimjanov Sh.O., Yusupjonov M.O., ESTABLISHMENT OF INTERCITY PASSENGER TRANSPORTATION SYSTEM	362
Normirzayev A.R., Egamberdiyev B.S., Mekhmonaliyev I., DEVELOPMENT OF TRANSPORTATION SYSTEM CONTROL SYSTEM USING GEOFORMATION TECHNOLOGIES	365
Norqulov U.M., Ruziyev Erkin A., Mamatov A., Yuldashev F. Q., KIMYO TA'LIMIDA FAN VA TARBIYA UYG'UNLIGI.....	368
Nuritdinova Y.A., CLASSIFICATION OF METHODS OF INTERACTIVE LEARNING FOR THE UNIVERSITY	373
Obidova F., Umarova Z., FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT	376
Odilova N.A., TEACHING TO READ IN A FOREIGN LANGUAGE AT A NON-LINGUISTIC UNIVERSITY	380
Otaxonov A., THE IMPORTANCE OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING HISTORICAL SCIENCES	383